

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**HUZURIDAGI KASBIY TA’LIM AGENTLIGI**  
**KASBIY TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG**  
**KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN XITOY TILI**  
**FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI**  
**SPETSIFIKATSIYASI**

**Toshkent – 2026**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG  
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN XITOIY TILI  
FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI  
SPETSIFIKATSIYASI**

Mazkur spetsifikatsiya pedagog kadrlar (stajyor - o‘qituvchi)ni xitoy tili fanidan bilim va ko‘nikma darajalarini aniqlash malaka sinovining umumiy tamoyillari, me‘yoriy asoslari, baholashning qamrovi, baholash mezonlari va malaka sinovini o‘tkazish tartibiga qo‘yiladigan talablarni aks ettiradi.

**I. Umumiy tamoyillar**

Baholash maqsadi – talabgorlarning xitoy tili fani o‘qitish metodikasi bo‘yicha nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarini kompleks baholash.

Ushbu baholash natijalari asosida pedagog kadrlar egallashi lozim bo‘ladigan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni aniqlashda qabul qilinadigan qarorlar asosli bo‘lishini ta‘minlash maqsadida baholashning barcha bosqichlarida validlik, ishonchlilik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta‘minlanadi.

**II. Me‘yoriy asoslar**

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

**III. Baholash qamrovi**

Xitoy tili fani o‘qituvchilari uchun malaka sinovida jami 40 ta test savollari topshirig‘i taqdim etiladi va test topshiriqlarini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt beriladi. Bunda yopiq test topshiriqlaridan (*yagona to‘g‘ri javobni talab qiladigan test topshiriqlari, moslashtirishni talab qiladigan test topshiriqlari va ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlari*) foydalaniladi. Test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan konstruktlar bo‘yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

*1- jadval*

*Test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan konstruktlar bo‘yicha taqsimoti*

<b>Mazmun sohasi</b>	<b>Baholanadigan konstruktlar</b>	<b>Test topshiriqlari soni</b>
----------------------	-----------------------------------	--------------------------------

<b>I. XITOY TILI</b>		<b>40 ta</b>
<b>1. Tilning amaliy qo'llanilishi (1 - 35 savollar)</b>		
<b>Fonetika</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- minimal juftliklar (minimal pairs) orqali ma'no farqlovchi tovushlarni kontekstga qarab ajratish;</li> <li>-fonetik jihatdan aytilishi bir xil, ma'nosi har xil so'zlardan to'g'risini topish.</li> </ul>	4
<b>Grammatika</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- grammatik strukturaning nomini va qo'llanilish o'rinlarini tanlash;</li> <li>- berilgan kontekstga mos grammatik birlik tanlash;</li> <li>- berilgan nutq namunasida grammatik xatoni topish va tushuntirish;</li> <li>- berilgan gap yoki jumlaning grammatik transformatsiya qilish (o'zgartirish);</li> <li>- grammatik xato sababini berilgan variantlar ichidan tanlash;</li> <li>- berilgan gapning grammatik jihatdan to'g'ri o'zgartirilgan variantini aniqlash;</li> <li>- o'xshash grammatik shakllardan ma'noga eng mosini tanlash</li> <li>- omonimlar orasidan eng kerakligini topish.</li> </ul>	13
<b>Leksika</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- berilgan kontekstga mos leksik birlikni tanlash;</li> <li>- berilgan leksik birlikning kontekstdagi ma'nosini aniqlash;</li> <li>- berilgan leksik birlikka kontekstga mos sinonimni tanlash;</li> <li>- ma'nosi yaqin bo'lgan leksik birliklar orasidan kontekstga eng mosini tanlash.</li> </ul>	12
<b>Pragmatika</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- berilgan vaziyatga mos og'zaki va (yoki) yozma nutq namunasini tanlash;</li> <li>- berilgan og'zaki va (yoki) yozma nutq namunasining kontekstda nazarda tutilgan ma'nosini anglash;</li> <li>- berilgan og'zaki va (yoki) yozma nutq namunasining ijtimoiy va kommunikativ jihatdan kontekstga mosligiga baho berish.</li> <li>- diskurs (suhbat) asosida mos javobni tanlash;</li> <li>- berilgan kontekstga mos muloqot strategiyasini aniqlash.</li> </ul>	6
<b>2. O'qib tushunish (36 - 40 savollar)</b>		
<b>O'qib tushunish</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- matnning asosiy g'oyasi, maqsadi va auditoriyasini, muallif pozitsiyasini aniqlash;</li> <li>- matnda ochiq aytilmagan ma'lumotlar, fikrlar, g'oyalarni anglash;</li> <li>- matndagi fakt va fikrni farqlash;</li> <li>- matnda tasvirlangan voqealar ketma-ketligini tushunish;</li> <li>- matn qismlari o'rtasidagi mantiqiy va diskursiv bog'lanishlarni tushunish (masalan, sabab-oqibat, qarama-qarshilik, izohlash, ketma-ketlik).</li> </ul>	5

Test topshiriqlarining kognitiv ko'nikmalar bo'yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Testdagi ulushi
1	Bilish va tushunish	Fanga doir nazariy ma'lumotlar, atamalar, qoidalar, tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo'llanilishini tushunish	20
2	Qo'llash	Bilim, tushuncha va protseduralarni yangi (notanish) kontekstlarda qo'llay olish	17
3	Mulohaza qilish	Faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarish	3

#### IV. Baholash mezonlari

Test topshiruvchining natijasini hisoblash uchun har bir to'g'ri javobga 2 ball, noto'g'ri javobga 0 ball beriladi. Maksimal 80 ballni tashkil qiladi.

#### V. Imtihon tartibi

*Taqiqlangan vositalar:* imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

*Axloq va intizom:* nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

#### VII. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

##### Xitoy tili

1. Цзян Липин (гл. ред.). Стандартное руководство HSK 4. – Пекин: Издательство Пекинского университета языка и культуры, 2015. – 2 т. HSK 标准教程 4 / 姜丽萍主编. – 北京: 北京语言大学出版社, 2015.

2. Цзян Липин (гл. ред.). Стандартное руководство HSK 5. – Пекин: Издательство Пекинского университета языка и культуры, 2016. – 2 т. HSK 标准教程 5 / 姜丽萍主编. – 北京: 北京语言大学出版社, 2016.

3. Лю Сюнь. (2009) Новый практический курс китайского языка 4, 5, 6 т. Издательство Пекинского университета языка и культуры. – Пекин. Darslik: 刘珣. 新实用汉语课本4,5,6 北京语言大学出版社. –北京

4. Ли Дэцзин/Под ред. Чэн Мейчжэнь. Практическая грамматика китайского языка для иностранцев. – Пекин: Изд-во Пекинского университета языков, 2008. – 652 с. 外国人使用汉语语法/李德津, 程美珍 编著. – 2版 (修订本). – 北京: 北京语言大学出版社, 2008. – 652页.

5. Назарова С., Шамсиева Ш., Рахматуллаева Д., Сюй Янвэй. Xitoy OAV tili : o'quv qo'llanma. — Tashkent : Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi, 2021. – 160 b.

6. Назарова С., Юсупова Н., Ариткова З. Amaliy xitoy tili: darslik: 2-qism. — Tashkent: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi, 2022. — 312 b.

7. Назарова С., Рахматуллаева Д. и др. Межкультурная коммуникация: теория и практика (китайский язык): учебное пособие. — Tashkent: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi, 2024. — 184 c.

***Eslatma:** test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*